

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/2 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаси хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Диљдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Тайланова Шохида Зайниневна - педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАСИНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Nematova Maftuna</i>	
ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i>	
MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKТИК TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i>	
"SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i>	
BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i>	
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i>	
ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i>	
XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i>	
FRANSUZ KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i>	
ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i>	
J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i>	
OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i>	
ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i>	
PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i>	
BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i>	
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i>	
GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i>	
ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY	115-119
<i>Tўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i>	
ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕХР	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Mamayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i>	
INGLIZ REKLAMA SHIIDLARI TARJIMASI JARAYONIDA	
SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI	125-129
<i>Abdumannonov Xojsiakbar Akmaljon ugli</i>	
ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка)	130-136
<i>Abdullaeva Raъno Xikmatovna</i>	
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i>	
ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i>	
EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i>	
WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH	163-169
<i>Xojiyeva Oynisa Shabonovna</i>	
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i>	
COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i>	
ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI	183-190
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich</i>	
OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI	191-196
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Кутыбаева Елизавета Дүйсенбаевна, Аманиязова Света Байнязовна</i>	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	197-203
<i>Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna</i>	
СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕМЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i>	
BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI	210-216

<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i>	
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI	217-223
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna</i>	
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI	224-228
<i>Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li</i>	
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH METODIKASI	229-233
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	234-239
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI	240-244
<i>Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI	245-258
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i>	
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR TUSHUNCHASI	259-265
<i>Valieva Xolida</i>	
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLDI	266-271
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	272-277
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i>	
TA'LIM-ISSLAB CHIQARISH INTEGRATSİYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	278-285
<i>Mamaraimova Zebo Shafoatovna</i>	
YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI	286-290
<i>Turayev Yolqin Sherzod o'g'li</i>	
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	291-295
<i>Abdurashulova Shoira Kushakovna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	296-305
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QTISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI SIFATIDA	306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i>	
VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i>	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i>	
BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i>	
TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdulkulovich</i>	
OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i>	
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	361-371
<i>Касимов Ойбек Омилович</i>	
СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОИДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i>	
MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY- METODOLOGIK JIHATLARI	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i>	
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i>	
ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i>	
MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i>	
AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i>	
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i>	
JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i>	
BO'LAJAK BOShLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i>	
MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	458-463

Abduraxmonov Akbar Abdusamidovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Jizzax davlat pedagogika universiteti bo'lim boshlig'i

MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY- METODOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyat rivojining milliylik va umuminsoniy tamoyillari bilan uzviy bog'liqligi hamda har bir jamiyat o'z tarixiy taraqqiyotida o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimi bilan bir qatorda dunyo tomonidan tan olingan umuminsoniy qadriyatlar tizimi bilan uyg'un ravishda rivojlanishi bog'liqligiga oid masalalar ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: An'analar, dunyoqarash, demokratiya, fuqarolik jamiyat, jamiyat, barqaror taraqqiyot, millat, milliylik, milliy ong, umuminsoniylik, qadriyatlar tizimi, tamoyillar.

Abdurakhmonov Akbar Abdusamidovich
Doctor of philosophy in Philosophy (PhD)
Head of Department of Jizzakh
State Pedagogical University

THEORETICAL-METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE HARMONIZATION OF THE PRINCIPLES OF NATIONALISM AND UNIVERSALISM

Annotation. This article provides a scientific analysis of issues related to the inextricable connection of the development of society with the principles of nationalism and universal, as well as the harmonious development of each society in its historical development with its own system of national values, as well as with the system of universal values recognized by the world.

Key words: traditions, worldview, democracy, civil society, society, sustainable development, nationality, nationalism, national consciousness, universality, value system, principles.

Абдурахмонов Акбар Абдухамидович
Доктор философии (PhD) по философским наукам
начальник отдела Джизакский государственный
педагогический университет

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЧЕТАНИЯ ПРИНЦИПОВ НАЦИОНАЛЬНОСТИ И УНИВЕРСАЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье проведен научный анализ вопросов, связанных с неразрывной связью развития общества с национальностью и общечеловеческими принципами, а также с тем, как каждое общество в своем историческом развитии развивалось в гармонии со своей общепризнанной системой общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: традиции, мировоззрение, демократия, гражданское общество, общество, устойчивое развитие, нация, национальность, национальное сознание, универсальность, система ценностей, принципы.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N58>

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatining rivojlanishida milliylik va umuminsoniylik tamoyillari uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillari mamlakatimizning yetakchi olimlari tomonidan ijtimoiy-falsafiy fanlarda demokratiyaning milliy va umuminsoniy tamoyillari uyg'unlashuvi muammolarini tahlil qilish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shunga qaramay, fuqarolik jamiyatining rivojlanishida, jamiyat barqaror taraqqiyotini ta'minlashda milliylik va umuminsoniylik tamoyillari uyg'unligi, bog'liqligi va namoyon bo'lism xususiyatlariga oid muammolarni o'rganish muhim hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati va demokratik qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'ringa ega bo'lishi, milliy davlatchilik asoslarining mustahkamlanishi, o'ziga xos jamiyat barqaror taraqqiyotini ta'minlash, jamiyat a'zolarining xalqaro qonunchilik bilan belgilangan oliy huquqlarini ro'yobga chiqarish umuminsoniylik tamoyillari bilan bir qatorda milliylik tamoyillariga ham yangicha yondashilib, uning mazmunini boyitishni, teran idrok etishni taqozo etadi.

Milliylik tamoyillarining shakllanishi har bir xalqning o'ziga xos milliy qadriyatlardan tizimiga bog'liq ravishda shakllangan. Milliylik har bir millatning o'ziga xos belgilar, jihatlari, ularning vujudga kelish jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi hudud va u bilan bog'liq tuyg'ular, millatning o'tmishi, tarixi va madaniyati bilan uyg'un ravishda shakllangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy fikr taraqqiyati tarixida har bir millatning o'ziga xos milliylik xususiyatlarining shakllanishida tarixi, ijtimoiy-falsafiy merosi muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, milliylik tamoyillari har bir millatning o'ziga xos milliy qadriyatlari takomili bilan uzviy bog'liq sanaladi.

Milliy qadriyatlар millatning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi kelajagi, madaniyati urf-odatlari, an'analari, tili va u vujudga kelgan hudud va boshqa jihatlar bilan uzviy bog'langan. Ular xilma-xil shakllarda bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ladi, o'ziga xos milliy qadriyatlар tizimini tashkil qiladi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta'minlovchi qadriyatlар – qon – qardoshlik, madaniy-ma'naviy yaqinlik, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi va boshqalar barqaror bo'lib hisoblanadi. Ular milliy qadriyatlар tizimida tarixiy jarayonlar davomida tez o'zgarib ba'zi kundalik va amaliy ahamiyatga molik qadriyatlarga nisbatan, milliy qadriyatlар tizimida, o'z o'rni va ahamiyatini uzoqroq saqlab qolishi bilan bog'liq xususiyatini ifodalaydi.[1]

Milliy qadriyatlар ma'lum bir millatning tarixiy evolyutsiyasi rivojida shakllanib boradigan quyidagi tarkibiy qismlar bilan uzviy bog'liq sanaladi:

1. Millatning genofondi, tabiiy barqarorligi, o'ziga xosligi, tarixiy o'zgaruvchanligi va ijtimoiy barqarorligi;
2. Millat tarixi, o'tmishi, kelajagi va ma'naviy merosi;
3. Milliy hudud, moddiy va madaniy yashash sharoitlari, iqtisodiy asos va ijtimoiy ustqurtma bilan bog'lik jihatlar.
4. Urf-odatlari. An'analar, marosimlar, turmush tarzi, va boshqalardagi milliylik, ular bilan bog'liq o'ziga xos jihatlar;
5. Milliy til, milliy madaniyat va ma'naviyat, milliy ong milliy ruh, milliy tuyg'ular va g'oyalalar[2].

Umuman olganda, milliylik har bir xalqning tarixiy turmush tarzi, o'ziga xos qadriyatlari tizimi tarixiy omillar, jarayonlar, etnopsixologik hamda etnomadaniy hodisalar bilan aloqador bo'lib, ijtimoiy shart-sharoit, xalq turmush tarzi, dini, ma'naviy-axloqiy an'analari, tili hamda tarixiy taraqqiyot davomida to'plangan tajribalar asosida muayyan shaxs va millat dunyoqarashi hamda ruhiyatida namoyon bo'ladi. Bu komponentlar millat shakllanishi va taraqqiyoti davomida o'zaro uyg'unlashadi. Ana shu jarayon har bir millat va xalqning o'ziga xos qadriyatlari tizimini hamda milliylik tamoyillarining tarkib topishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

"... har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'lishini hammamiz yaxshi bilamiz"[3] yoki Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy shakllarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir"[4] degan fikrlari chuqur falsafiy mazmunga ega.

Millat va xalqlarning etnik tarkibini tahlil etgan olimlarning xulosalariga ko'ra, hozirgi davrdagi millatlarning hech biri alohida bir etnik tarkibda yuzaga kelmagan. Shu tufayli milliylik masalasini tadqiq etishda millat haqidagi (konstruktivistik, primordailistik, instrumentalistik, oykumenik, etnik, etatistik) nazariyalardan instrumentalistik nazariyaga tayanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki ushbu nazariyada asosiy e'tibor millat shakllanishidagi omillarga qaratiladi. Ma'lumki, millatlar yagona mintaqada yashovchi etnoslarning o'zaro uyg'unlashuvi va birlashuvidan yuzaga kelgan, ya'ni ular ko'p etnoslidir. Etnoslarning o'zaro uyg'unlashuvi va birlashuvi millat yuzaga kelishida etakchi omillardan biri sanaladi. "Dunyoda, – deb yozadi A.Asqarov, – biror-bir xalq yo'qli, u ko'p komponentli bo'lmasin"[5].

Etnoslar rivojidagi turfa xil komponentlarning aloqadorligi asosida milliylik murakkab, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, psixologik jarayonlar mahsuli sifatida tarkib topgan etnoslararo munosabatlar dastlab elatlarning shakllanishiga olib kelgan. "Bir hududda yashovchi elatlar, – deb yozadi tarixchi olim K.Shoniyofov, – yoki ularning ayrim guruhlari bir-birlari bilan doimiy iqtisodiy va madaniy jihatdan yaqinlashadilar. Ularning o'zaro yaqinlashish jarayoni ko'pincha bir tilda gapiruvchi qavm-qarindosh, yurtdoshlar orasida mavjud bo'lgan. Etnik jarayonga hududda qadimdan yashab kelgan yoki boshqa viloyat, mamlakatlardan ko'chib kelgan (migrantlar) etnoslar yoki ayrim etnik guruhlar ham faol qatnashishlari mumkin bo'lgan.

Etnoslarning o'zaro yaqinlashish jarayonida ma'lum bir guruuh yoki komponent etakchilik qiladi, boshqa etnik guruhlar shu etakchi guruuh atrofida bo'lib, u bilan til va madaniyat jihatidan yaqinlashib, jipslashib boradi"[6].

Etnoslararo munosabatdagi ana shu holat nafaqat elat va millatning shakllanishiga, ayni paytda, milliylikni tashkil etuvchi ma'naviy, axloqiy va eng muhim iqtisodiy-ijtimoiy komponentlarning ham tarkib topishiga olib kelgan. N.D.Djandeldinning fikricha, milliylik a) odatlar va xulq-atvor, b) odatiy va odatiy bo'limgan muhit va hodisalarga munosabat, v) umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltiruvchi omillar, g) ehtiyoj va manfaat kabilalar tashkil etadi[7].

"Ma'lumki, qadimiy va saxovatli zaminimizda turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab keladi. Mehmono'stlik, ezgulik, saxovati, va tom ma'nodagi bag'rikenglik xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi"[8].

Milliylik tamoyillarining shakllanishi bu har bir millatning o'ziga xos tarixiy taqdir yo'li bilan bir qatorla, bugungi kunda jamiyatdagi o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy sohalardagi munosabalar tartibini belgilab beradi.

Bugungi kunda mamlatimizda 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari ahillik asosida istiqomat qilmoqda. Ular umumiyligi - jonajon O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida birlashib, burcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti, va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qo'rishga munosib hissa qo'shmoqda[9].

Haqiqatda, jamiyat barqaror taraqqiyoti, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi xalqimizning o'ziga xos milliylik jihatlarini qamrab olgan bag'rikenglik va vatanparvarlik, madaniyatni rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining eng muhim yo'naliishlaridan hisoblanadi.

Jamiyat barqaror taraqqiyoti, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, fuqarolik jamiyati instituti hisoblangan mahallada shaxslararo munosabatlar tizimini hamda millatlar o'rtasidagi munosabatlarni rasional boshqarishda xalqimizning tarixiy turmush tarzi asosida shakllangan milliylik tamoyillari muhim o'ringa ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan ilmiy taxlilar natijasida milliylik tamoyiliga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: milliylik- bu jamiyat barqaror taraqqiyotini ta'minlash hamda fuqarolik jamiyatining rivojlanishida hap bir xalqning o'ziga xoc turmush tarzi, milliy madaniyatning o'ziga xosligi, odamlar tafakkuri va ijtimoiy saviyasini inobatga olgan holda jamiyatning turli jabhalarida xalqimizga xos bo'lgan obyektiv takrorlanuvchi ustuvor qonuniyat va hodisalarning amaliyotda namoyon bo'lishi.

Tahlil va natijalar. Xalqimizning tarixiy taraqqiyot yo'li asosida shakllangan milliylik tamoyillariga jamoa bo'lib yashash tuyg'usining mavjudligi; boshqa millat va elat vakillariga nisbatan bag'rikenglik munosabatida bo'lishi; ilm-ma'rifatga intilish va mehnatsevarlik; din va ma'naviy qadriyatlarning turmush tarzida ustuvorligi; o'ziga xos demografik vaziyat; o'zga millat va elat vakillari madaniyati va an'analariga o'zaro hurmat; o'ziga xos geosiyosiy mavqeining mavjudligi; demokratik jarayonlarning uzviyligi, bosqichma-bosqichligi; o'ziga xos ijtimoiy ong va ijtimoiy psixologiyaga egaligi kiradi.

Har qanday jamiyatning o'ziga xos rivojlanish yo'li o'zida milliylikni aks ettirish bilan birga umuminsoniylik tamoyillarini ham o'zida mujassam etadi.

Umuminsoniylik ijtimoiy-falsafiy tushuncha sifatida alohida ahamiyat kasb etib, dunyo xalqlarini o'ziga xos birlashtirib turuvchi eng umumiyligi jihat hisoblanadi.

Professor Q.Nazarovning fikricha "Umuminsoniylik tirik tabiatning bir qismi bo'lgan odam zotining hayoti va kamoloti hamda tarixiy, siyosiy va boshqa birliklar (ijtimoiy sub'ektlar) uchun ahamiyati o'z aksini topadi. Shu bilan birga umuminsoniylikda umumijtimoiy munosabatlar, ta'lim-tarbiya va ma'naviy-axloqiy jihatlar, ijtimoiy muhitning eng umumiyligi tomonlari bilan bog'liq sifatlar ham aks etadi, bir so'z bilan aytganda, umuminsoniylik odamlar uchun eng umumiyligi bo'lgan mezonlar, obyektiv holatlar xususiyatlar, shart-sharoitlar va boshqalarni o'zida aks ettiradigan tushuncha sifatida ishlataladi"[10].

Umuminsoniylik butun jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan, insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo'naliishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o'zida aks ettiradigan

qadriyatlarning umumiy shakllarini ifodalaydi. Ular jamiyat a'zolarining hammasi uchun umumiy ahamiyat kasb etadi, insoniyat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kishilarning amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabati ham ana shu mezonlarga mos kelishi yoki kelmasligiga qarab baholanadi.

Umuminsoniylik jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, unga mansub turmush, oila, urug', qabila, elat, millat, xalq va davlatning ijtimoiy holati, siyosiy hayoti, ma'naviy hayoti, axloq, huquq, din, madaniyat, nafosat, san'at va ilm-fan sohalari bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Umuminsoniylik jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida mustaqillik, erkinlik,adolat, tenglik, qonun ustuvorligi tamoyillarida o'ziga xos jihatlarda namoyon bo'lib, jamiyatning barqaror taraqqiyoti, inson qadrini muhim o'runga olib chiqadi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida umuminsoniylikning ustuvorligi talablari har bir tarixiy birlikning tarixiy rivojlanish maxsuli ekanligi, insoniyatning taqdiri, orzu-umidlari borligini hisobga olishni taqozo etadi. Bu talablarga ko'ra, insonlarning jamiyatda faoliyat yuritishi, yashashi, tabiiy huquqlardan foydalanishi kafolatlangan bo'ladi. 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi" jamiyatda fuqarolarning umuminsoniy huquqlari va qadriyatlarni kafolatlashda muhim hujjat sanaladi.

Umuman olganda, umuminsoniylik dunyo xaqlarning ko'pasrlik jamiyat boshqaruvi asosida to'plagan ideallarini o'ziga mujassam etgan holda jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimidagi muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynadi hamda doimiy ravishda har bir millatning o'ziga xos bo'lgan milliylik tamoyillari bilan uyg'un holatda bo'ladi. Bu esa o'z navbatida globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari kechayotgan dunyoda muammolarni hal qilishda amaliy yechim vazifasini bajaradi.

Insoniyat sivilizatsiyasining hozirgi tarixiy rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va boshqa qator muammolarning ijobjiy yechimini topishda milliylik va umuminsoniylik tamoyillari uyg'unligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ularni hal qilish jahon hamjamiatining barcha imkoniyatlarni safarbar etishni taqozo qilmoqda. Xususan, siyosiy suverenitetini qo'lga kiritgan davlatlarning milliy manfaatlarni himoya qilishda milliy va umuminsoniy tamoyillarni uyg'unlashtirish borasidagi siyosati mustabid tuzumdan meros bo'lib qolgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyat oqibatlarini bartaraf qilish imkoniyatlarini qidirib topishga yo'naltirilishi kerak.

Davlatning mustaqilligi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy omillar yordamida milliy va umuminsoniy tamoyillarni uyg'unlashtirish masalasida keng ko'lamdagi muammolarni barham toptirib, global miqyosda barqaror taraqqiyot uchun zarur, hayotiy muhit yaratish imkonini beradi. Zero, jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida: mahalliy, milliy, mintaqaviy darajalarda turli manfaatlar bilan bog'liq ziddiyatlarning kuchayishi, global xavfsizlik tizimidagi o'zgarishlar davlat o'rtasida milliy va umuminsoniy tamoyillarni uyg'unlashtirish borasida bir taraflama qarash natijasida paydo bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida mahalliy, milliy, mintaqaviy darajalarda turli manfaatlar bilan bog'liq ziddiyatlarning kuchayishining salbiy oqibatlari tahdidi dunyo hamjamiatini tashvishga solmoqda.

Bugungi kunda, jahonda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarda integratsiyalashuv, universallashuv jarayonlari global qadriyatlarni shakllantirib, uni milliy va umuminsoniy tamoyillarni uyg'unlashtirishda muhim omilga aylantirmoqda. Ya'ni XX asr o'rtalaridan boshlab, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning: milliy (lokal), hududiy (regional), global – "geomental xususiyatlari"

integratsiyalashib, umuminsoniy universal manfaatlarni shakllantiruvchi ma'naviy-axloqiy tamoyillar, ijtimoiy normalar, huquqiy mezonlar tizimi shakllanmoqda.

Bu o'z navbatida, bir tomondan, ma'naviy-madaniy hayotning turli sohalarida, ayniqsa: fan, texnika, texnologiya, jamiyatning intellektual salohiyat potensiali, ijtimoiy mobillik, axborotlashish darajasi, aloqa-transformatsiya vositalari kommunikatsiyasi, infrastrukturasi rivojlanishi va boshqa xalqaro munosabatlar tizimidagi paradigmal o'zgarishlar tarzida namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchini tomondan, olamshumul muammolarning, dastlab lokal darajalarda vujudga kelib, obyektiv shart-sharoitlar, subyektiv omillar ta'sirida, eskalatsiyasi natijasida oqibatlari globallashuvi jarayonidagi: mahalliy, milliy, hududiy xususiyatlarni konkret ijtimoiy makon, tarixiy zamon kontekstida differensial yondashib kompleks-sistemali o'rganish zaruriyati, milliylik va umuminsoniylik uyg'unlashuviga doir nazariy-metodologik asoslarni ishlab chiqish ehtiyojini vujudga keltirmoqda[11].

Hozirgi davr realligi, umuman global muammolar yechimini, xususan, milliy va umuminsoniy tamoyillarni uyg'unlashtirishni xalqaro munosabatlarning umume'tirof etilgan demokratik tamoyillari, gumanistik mazmuni, siyosiy mexanizmlari, iqtisodiy asoslari bilan bir qatorda, bevosita ma'naviy-axloqiy omillar orqali ijtimoiy-siyosiy usul-vositalar bilan tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishga bog'liqligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, bugungi kunda insoniyatning global muammolar yechimini topishga doir tajribalari, ularni ayrim davlatlar (hatto, guruhi) tomonidan avtonom tarzda yoki siyosiy kuch va vositalar bilan hal qilish mumkin emasligini, aksincha, uning ma'naviy-axloqiy asoslari ustuvorligini ta'minlash zarurligini isbotlab bermoqda.

Muhokama. Ming yillar davomida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda: millatlarning – millatlararo, etnoslarning – etnoslararo, irqlarning – irqlararo, dinlarning – konfessiyalararo, ijtimoiy tabaqalarning – sinflararo, insonlarning – shaxslararo aloqalari ijtimoiy borliq subyektlari manfaatlari asosida shakllanib, rivojlanib kelgan. Hozirgi davrda ularning o'zaro integratsiyasi o'ta ziddiyatli bosqichga kirib borishi, manfaatlarni anglash va umumiyy murosaga kelish uchun yangicha tafakkur tarzini taqozo qilmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, "inson va inson", "jamiyat va inson", "jamiyat va jamiyat", "tabiat-jamiyat-inson" tizimidagi ziddiyatlarning (asosan, antropogen omil ta'sirida) keskinlashuvi va globallashuvi sharoitida vujudga kelgan global muammolar tizimi, bevosita milliy va umuminsoniy tamoyillarni uyg'unlashtirishdagi muammolarga borib taqaladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning axborotlashuv, urbanizatsiyalashuv, integratsiyalashuv, universallashuv jarayonlari globallashuv sur'atlari jadallahuvi, turli: milliy (lokal), hududiy (regional) va umuminsoniy (global) doirada tizimli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy inqirozlarga sabab bo'lishini kompleks-sistemali, konkret-faktorial ilmiy tahlilida ojizlik mavjud. Lekin hozirgacha, ilmiy adabiyotlarda bu muammolarning vujudga kelishida, aynan (xususan, iqtisodiy, siyosiy) har bir jamiyat tarixiy taraqqiyotida shakllangan milliylik tamoyillarini umumjamiyat tarixiy evolyutsiyasi asosida shakllangan umuminsoniylik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish masalalari yetarli darajada o'rganilmaganligi, uning nazariy-metodologik ojizligi natijasi deb baholanishga munosib. Shuning uchun bu muammolar yechimida milliylik va umuminsoniylik tamoyillari uyg'unlashuvi, millatlararo munosabatda tolerantlik tamoyiliga asoslanishi, manfaatlararo murosa (konsensus) madaniyatini

shakllantirishga doir tarixiy merosni ijodiy rivojlantirib, yangi nazariy konseptual asoslarini yaratish zarurati paydo bo'ldi[12].

Bugun biz ajdodlarimiz tomonidan ming yillar davomida milliylik va umuminsoniylikni uyg'unlashtirish sohasida yaratilgan boy madaniy merosni tiklash va rivojlantirishga davlat siyosati darajasida munosabatda bo'lmoqdamiz. Xususan, bu yo'nalishda milliylik va umuminsoniylik tamoyillari uyg'unlashuviga o'zaro bag'rikenglik tamoyili ustuvorligini ta'minlash – barqaror taraqqiyot omiliga aylanmoqda. O'zbek xalqining azaldan milliylik va umuminsoniylik uyg'unlashuviga bag'rikenglik tamoyiliga amal qilishi hamda boy ma'naviy-madaniy merosi jahon xalqlarini hayratga solmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumanda "...bizning davlatimiz ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'yynamoqda”[13] — deb, ta'kidladi.

Xulosa. Milliylik va umuminsoniylik tamoyillarini uyg'unlashtirish, obyektiv tarixiy jarayon bo'lib, umuminsoniyatning ilg'or qadriyatlarini ijodiy o'zlashtirish orqali ta'minlanishi mumkin. Bu jarayonning natijalari ijobiyligi va samaradorligi bag'rikenglik tamoyillariga amal qilishga bog'liq, ya'ni: birinchidan, milliylik va umuminsoniylik tamoyillari uyg'unlashuvi tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan, lekin unutilishga mahkum etilgan an'analarni qayta tiklash va ularni avlodlarga transformatsiya qilishga; ikkinchidan, turli ijtimoiy ong shakllarining milliylik va umuminsoniylikni uyg'unlashtirish funksiyalarini integratsiyalashtirish; uchinchidan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy munosabatlarda milliylik va umuminsoniylikni uyg'unlashtirishga differensial yondashish; to'rtinchidan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar global lashuv intensivlashayotgan sharoitda milliy biqqlik, etnoegoistik stereotiplarni mutloqlashtirishning oldini olish; beshinchidan, milliylik va umuminsoniylikni uyg'unlashtirishda tolerantlik: tarixiylik va mantiqiylik, doimiylik va uzlusizlik, ma'naviy merosga vorislik va ijodiy rivojlantirish tamoyillariga asoslanishni taqozo qiladi. Zero, milliylik va umuminsoniylikni uyg'unlashtirishda bag'rikenglik tamoyilining dialektikasi: milliy va umuminsoniy, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarni integratsiyalashtiradi va namoyon qiladi[14].

Shuning uchun ham bugungi kunda **birinchidan**, milliylik va umuminsoniylik tamoyillari uyg'unlashuvি obyektiv zaruriyat bo'lsa ham, uni subyektiv omillar yordamida global tashkillashtirish va boshqarish muammosi dolzarblashmoqda.

Ikkinchidan, har qanday millat manfaatlarining mental-individual xarakteri, ularni umuminsoniy manfaatlarga stixiyali va mexanistik tarzda integratsiyalashtira olmaydi, balki o'ziga xoc obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar tizimini taqozo qiladi.

Uchinchidan, milliy va umuminsoniy tamoyillarni uyg'unlashtirish manfaatlar muvozanatidan kelib chiqqan holda tarixiy zamon, ijtimoiy makon xususiyatlari, rivojlanish tendensiyasi global lashuv yo'nalishlariga, oqibatlari xarakteriga mos bo'ladi.

To'rtinchidan, global darajada milliylik va umuminsoniylikni uyg'unlashtirish jarayoni natijalari, muqarrar ravishda, uning umuminsoniy qadriyatga aylanish tendensiyasini namoyon qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. — Toshkent. Faylafuslar milliy jamiyati nashriyoti / — 2004. 79 b
2. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. — Toshkent. Faylafuslar milliy jamiyati nashriyoti / — 2004. 79-b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 7- b.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J.1. – Toshkent.: O'zbekiston, 2017. 29- b.
5. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy-metodologik masalalari. (O'zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy-metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix mavzusidagi ilmiy-nazariy seminar). – Toshkent. 2004, 19-20 noyabr. 8- b.
6. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent.: Sharq, 2001. 257- b.
7. Djandaldin N.D. Priroda natsionalnoy psixologii. – Alma-Ata. 1971. S.146-147.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent. O'zbekiston. -2022. 305-b.
9. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. — Toshkent. Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti / — 2004. 79-b.
10. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. — Toshkent. Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti / — 2004. 79-b.
11. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi. 2-kitob.- Toshkent, 2006.-B.57-58.
12. Смирнова Н., Моисеев Н.Н. О политической науке и о будущем человечества //Полис, 2008, №1.-С.187.
13. Mirziyoyev Sh.M. «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi» mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi// Xalq so'zi, 15.06.2017.
14. Бегматов А. Ма'навият фалсафаси. 2-китоб.- Тошкент, 2006. -Б.112-114.
15. Sobirovich T. B. Philosophical Dialectics of National and Universal Cultural Development //Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IIJSR). – 2021.
16. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 6. – С. 229-233.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 12/2 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).